

UZLUKSIZ TA'LIMDA ANVAR OBIDJON IJODINING O'RGANILISHI

Raximova Shalola Olim qizi

O'zbek tili va adabiyoti magistratura yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanalishi, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynayotgani, Anvar Obidjonning ijodining o'rganilishi juda muhim va ahamiyatli masala ekanligi, shoir o'zbek bolalar adabiyotini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa bilganligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, Anvar Obidjon, jamiyat, inson, faoliyat, rivojlanish, ijod, ta'lim, samara, jarayon.*

Аннотация: *В данной статье процесс непрерывного образования рассматривается как наиболее благоприятный период для принятия человеком решения во всех аспектах, что образование играет решающую роль в развитии личности и общества в настоящее время, что изучение Творчество Анвара Обиджона – очень важный и значимый вопрос, поэт. Говорят, что он смог вывести узбекскую детскую литературу на новый этап развития.*

Ключевые слова: *непрерывное образование, Анвар Обиджон, общество, человек, деятельность, развитие, творчество, образование, эффект, процесс.*

Annotation: *In this article, the process of continuous education is considered the most favorable period for a person to make a decision in all aspects, that education plays a decisive role in the development of the individual and society at the present time, that the study of Anvar Obidjon's work is a very important and significant issue, the poet It is said that he was able to bring Uzbek children's literature to a new stage of development.*

Key words: *continuous education, Anvar Obidjon, society, human, activity, development, creativity, education, effect, process.*

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning, ilmiy-

texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Ma'lumki, ta'lim - tarbiya insonga borliqni anglash sir asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, nihoyat, jamiyatni insonparvarlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta'lim tizimi aniqlab beradi. Davlatning ushbu tizimga munosabati, uning kelajagini belgilaydi. Uzlüksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar mahlumotlarini o'zlashtiradi, yuksak mahnaviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning adabiy, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirishda bevosita ta'lim beruvchilarning ya'ni o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, malakali pedagogdan darsni sifatli va mazmunli tashkil etish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish va shu bilan birgalikda dars jarayonidan olgan bilimlarini hayot yo'lida qo'llay oladigan, o'z qobiliyatlarini o'z mehnati bilan kashf eta oladigan kadrlarni yetkazib berish talab etiladi.

Adabiyot darslarida har bir ijodkor yoxud shoirning asarini, uning ijod namunalarini o'rganishdan oldin o'zining faoliyati ham atroflicha o'rganish o'qilishi kutilayotgan asar namunasining mohiyatini anglashda anchagina qo'l keladi. Shuning uchun ham ijodkor shaxsiga doir o'quv topshiriqlarni ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi muhim ahamiyatga ega.

Biz bilamizki, Anvar Obidjon ijodi bolalar adabiyotiga yangicha yo'nalish olib kirdi. She'rlarida nafaqat kitobxon onggiga ta'sir qilish, balki uning qalbiga kirib borish bosh maqsad qilib olingan. chunki ko'ngilda qattiq o'rnashgan narsagina ongda uzoq vaqt saqlanadi.

Anvar Obidjon - O'zbekiston jamiyatida yuqori qiymatga ega bo'lgan ijodkor, o'zbek adabiyoti muallifi. Uzlüksiz ta'limda Anvar Obidjonning ijodining o'rganilishi juda muhim va ahamiyatli masala. Anvar Obidjonning ijodida uning jamiyat, inson, millat, tarix, fikr, ma'naviyot, mafkuraviy xulq va zamon, teatr, obrazlar, milliy an'analarga doir mavzular o'zgaruvchan ravishda jalb qilingan.

O'zbek bolalar adabiyotining yirik va zahmatkash vakili Anvar Obidjon XX asrning 80-yillarida yurtimizga istiqlolni chorlagan ijodkorlardan biri sifatida maydonga chiqdi. Ham kattalarga, ham bolalarga bag'ishlab she'rlar yozgan shoir o'zbek bolalar adabiyotini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa bildi. Adib adabiyotning nasr, nazm, dramaturgiya turidan tashqari aralash – liro-epik turida, ya'ni to'rt turida ham qalam tebratdiki, bunday rang-baranglik Shukur Sa'dulla, Safar Barnoyev singari sanoqli ijodkorlar ijodidagina uchraydi.

Anvar Obidjon ijodining o'ziga xosliklaridan biri shundaki, barcha turdagi asarlari birday shuhrat qozondi. Sababi, ularning har birida adibning ulkan salohiyat egasi ekani, donishmandligi, hajv ustasi sifatidagi mahorati, muhimi, xalq va bolalar dunyosini chuqur idrok eta olgani namoyondir. Adibning yana bir jiddiy yutug'i: nasriy, she'riy, dramatik asarlarida xalq ertaklari, dostonlariga xos turli jihatlarni o'zlashtirib turib, bu jihatlarni o'z uslubi bilan sintez qila olganidadir. Farg'onalik ekani esa satira va yumordan o'rinli hamda mahorat bilan foydalana bilishiga zamin bo'ldi. Adib o'zbek adabiy ertakchiligi an'analarini davom ettirib, bu borada ham novator ekanini ko'rsata bildi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ma'murov B.B. Shaxs ijtimoiy edagogic hodisa sifatida. / "Uzluksiz ta'lim" jurnali.
2. Zoyirov K. BUGUNGI KUNDA UZLUKSIZ TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUV // Журнал музыки и искусства. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
3. Qobilova A. ANVAR OBIDJON IJODIDA YUMOR YARATISH XUSUSIYATLARI // Current approaches and new research in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 98-101.
4. Gulmiraxon Q. OZBEK BOLALAR SHERIYATI VA ANVAR OBIDJON // SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 35-38.